

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI MA'NAVIY-
AXLOQIY TARBIYALASHDA - TA'LIM VA TARBIYA BOSH MEZON**

Mamatkulova Mahliyo Abdunazar qizi

**Andijon viloyati Marhamat tumani DMTT
Direktor o'rinbosari**

Negmatova Zarnigor Anvarovna

**Qashqadaryo viloyati Muborak tumani
6-sonli DMTT direktor o'rinbosari**

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ularni ibrat maktabi, ma'naviyat maktabi, keksalar maktabi, ota-onalar universiteti, mahalla instiuti kabi ta'lim va tarbiya oliyoghlari bilan ta'minlashimiz, avvalombor bu bo'ladagi ishlarimizni yanada jonlantirishimiz lozim. Bu borada maqolada bir qancha taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan. Shuningdek ularni ta'lim va tarbiyasidagi fikr mulohazalari maqolada ilmiy nazariy jihatdan asoslantirildi.

Kalit so'zlar: globallashuv, pedagogika, ta'lim-tarbiya, inklyuziv ta'lim, milliy tiklanish, milliy yuksalish, ma'naviyat.

**IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL EDUCATIONAL
ORGANIZATIONS - EDUCATION AND UPBRINGING IS THE MAIN CRITERIA**

Annotation

The article argues that in the spiritual and moral education of preschool children, we should provide them with educational and upbringing institutions such as model schools, spiritual schools, schools for the elderly, parent universities, neighborhood institutes, and, first of all, further revitalize our work in this area. The article presents a number of proposals and recommendations in this regard. The article also provides scientific and theoretical justification of the ideas in their education and upbringing.

Keywords: globalization, pedagogy, education and upbringing, inclusive education, national revival, national upliftment, spirituality.

O'zbekiston Respublikasining barcha shahar va qishloqlarida insonparvarlik g'oyalarga asoslangan ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari olib borilmoqda. Jumldan ta'lim va tarbiya sohasida ham davlat siyosati darajasida islohotlar amalga oshirilmoqdaki bu-maktabgacha ta'lim tizimini xam bugungi kunda rivojlantirish istiqbollarini belgilab bermoqda.

Zero, Ozod va obod vatanda yashayotgan ertangi kunimizning davomchilari bo'lgan yoshlarimiz uchun barcha qulayliklar va imkoniyatlar yaratilganligidan mamnun bo'lasan kishi. Bolalar va yoshlar uchun sarflanadigan moddiy va ma'naviy xarajatlar tez kunlarda o'z samarasini bermoqda. Bolalar va yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qilingan ezgu ishlar bu tinchligimiz va farovonligimizni kafolati ekanligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

O'zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo'lishi darkor. Albatta, bu masala bo'yicha ma'sul bo'lgan tegishli idoralar bor, kuch qudratimiz ham yetarli. Lekin qachon yurt tinch va obod bo'ladi? Qachonki har qaysi uyda, har qaysi mahallada yashayotgan odam tinchlik va osudalikning qadriga yetib, uni mustahkamlashni, uni himoyalashni o'zining burchi, deb bilsa, tinchlik uchun kurashsagina bu maqsadga erishish mumkin.

Insoniyat hayotida shiddatli o'zgarishlar bilan globallashuv jarayoni davom etayotgan bir paytda, inson ongi va qalbi uchun kurash bormoqdaki, yoshlarimizni g'arbdan ommaviy madaniyat elementlari sifatida kirib kelayotgan ularni fikri va ongini zaharlovchi turlicha zararli g'oyalarning xuruji kuchaymoqda. Bunday paytda o'z-o'zidan ravshanki har tomonlama shakillanish va o'sish pallasida bo'lgan yoshlar bu kurashning ob'ekti bo'lib qolmoqdalar. Yoshlarimizni Vatanparvarlik va milliy g'urur ruhida tarbiyalash ularni globallashuv jarayoni calbiy ta'siri va oqibatlaridan saqlash o'zini shu yurtning erkin fuqarosi deb bilgan barcha insonlarning oldida turgan eng muhim vazifadir.

Yoshlarimiz kelajagining porloq bo'lishiga rahna solayotgan nomunosib g'ayri insoniy axloq ko'rinishlari tarqalmasligi uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak deb hisoblayman.

1. Mamlakatimizda yuksak ilmiy salohiyatga chuqur bilim va hayotiy tajribaga ega bo'lgan, ko'pni ko'rgan insonlar ko'p. Hayotni achchiq chuchugini totigan intellektual qatlam ziyolilarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Ahli donish ustoz murabbiylar, mohir pedagoglar, fidoiy vrachlarimiz hamda mohir muhandislarimiz qo'yinki nuroniy bobo va buvilarimiz bor. Oilalar ibratli bo'lgan ota onalarimiz borki, ularni yoshlar tarbiyasi bo'yicha bilimlari, amaliyotlaridan keng foydalanishimiz darkor. Bu borda "Oila instituti", "Mahalla universiteti" kabi ta'lim muassasalari bola tarbiyasida shug'ullanish uchun amaliyotga tatbiq qilinsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

2. Shaxsiy na'muna va ibrat asosida tarbiyalash hamma davrlarda tarbiyaning asosiy omili bo'lib kelgan. Oila institutida tarbiya masalasiga mahallada bolalar va yoshlar axloqli odobli bo'lishiga kuyinchaklik masalasini o'tkirlashtirish zarur. Ayni shu masalada muhtaram prezidentimiz "Oila"ni qo'llab quvvatlashni yanada takomillashtirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"ning bosh maqsadi sifatida o'z fikr mulohazalarini va qarashlarni ta'kidlab o'tdilar.

3. Oilada yoshlikdan boshlab bolalarni mehnat qilishga o'rgatish orqali tarbiyalash, aynan mehnat qilish orqali ota-onalarga, qarindoshlarga, el yurtga hurmat e'tibor tuyg'ularini singdirish, Vatanimiz jamolini aqliy va jismoniy mehnat natijasida chiroy ochayotganini his etish kerak. O'z mehnatidan zavqlanish el-yurt koriga yarayotganidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish darkor. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda bolani intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatlariga maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab etibor qaratish lozim ekanligiga alohida etibor berish kerakligi keltirib o'tilgan.

4. Har bir oilada ota-onaning o'rni va ma'suliyatini oshirish, bolalar tarbiyasida ayniqsa otaning talabchanligi, mulohazakorligi hamda me'yoriy g'amxo'rliqi katta ahamiyatga egadir. Bu borada jamiyatda bolani ta'lim va tarbiya berishning xalqaro platformasiga o'tish har bir ota-onaning bola oldidagi majburiyatlari bo'yicha kerak bo'lsa noqobil oilalarda ham keng ko'lamli profilaktik va inklyuziv ta'lim-tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishni taqozo qilmoqda. Bu esa ba'zi noqobil otalar va onalarni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirishni ham nazarda tutadi.

Zero o'g'il bolalarni mehnatsevar qo'rqmas, jasur va mard bo'lishida ota-onaning o'rni juda ahamiyatlidir. Shuning uchun ham "Pedagogika"da "bola yetaklovchi" ma'nosida ko'proq ota nazarda tutiladi.

5. Jamoatchilik orasida bolalar va yoshlarimizni milliy an'analar va qadriyatlar asosida odobli va ahloqli qilib tarbiyalashning muomala odobi, kiyinishidagi milliylik va go'zallikning zamonaviy dizayni namunalarini targ'ib qilish, ota-onaga bo'ladigan alohida hurmat va e'tiborning amaliy jihatlari yoshlikdan sog'lig'ining qadriga yetishning ahamiyati, zararli odatlardan saqlanishda irodaviy tarbiyalash muhimdir.

6. Bilim va hunar o'rganish kishini baxt saodatga erishishining kaliti ekanligi haqidagi ochiq muloqot va suhbatlar tarbiyachilar, o'qituvchilar va uztozlar amaliyotini uyushtirish uslublarini qo'llash vaqti keldi.

7. Har qanday tarbiya jarayonida o'rganilayotgan ob'ektni haqqoniy baholab oqni "oq" deb "qorani qora" deb, yaxshi ibratli xatti-harakatlarni, yomon illatli xatti-harakatlar bilan yonma-yon ifodalash haqiqatni anglashning eng yaxshi ishonchli uslubidir. Kezi kelganda aytish mumkinki "WWW" mana buni ma'nosini avvalombor har birimiz anglab yetmog'imiz darkor. Yani "Butun dunyo o'rgimchak to'ri" degan ma'noni bildiradi va bu bolani hayotida hatto yashash tarzida "oqni oq-qorani qora" deyishga bo'lgan munosabatida juda katta muhim rol ni bajaradi.

Hayotimizning barcha sohasida erishayotgan yutuqlarimiz yaxshilikka, yangilikka, ezgulikka intilganimiz samarasidir. Zeroki, bu insonning borliqqa bo'lgan, hayotga bo'lgan munosabatidagi oliy tafakkur mahsulidir. Shu bilan birga hayotga ochiq ko'z bilan qarab xom xayolga berilmaslik, sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni odob ahloqqa yoshlarimiz ongi shuuridagi ayrim noxush salbiy holatlardan bu o'tkinchi holat deb ko'z yumib ketish eng katta xatodir. Aytish mumkinki, bu ota-ona tarbiyachi uchun kechirilmas holdir. Negaki tarbiyada holatning katta kichigi bo'lmaydi. Har qanday arzimas bo'lib ko'ringan tarbiyadagi noxushlik tez orada kattalashib, bolalar va yoshlarni halol yashashi topishiga ta'sir etishi mumkin. Kelajagimiz barkamol avlod qo'lidadir. Ularning o'qish va mehnatda kasb hunar sirlarini o'rganishlaridagi muvaffaqiyatlari bizning yutug'imizdir.

Sport sohasida erishilayotgan yutuqlar albatta ommaviylik hamda farzandlarimizni yanada sog'lom va komil inson bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini oilalarda ommalashtirish yaxshi natija beradi. Biz ota onalar va ziyolilar hamma vaqt, har joyda o'zimizning shaxsiy na'munamiz kerak bo'lsa, haqli talabchanligimiz bilan ibrat bo'lishimiz kerak.

Ibrat tarbiyasi milliy pedogogikaning noyob durdonasi bo'lib, bog'cha tarbiyalanuvchisi va maktab o'quvchilarning ma'naviy kamolatida har bir pedogok shaxsiy ibrat va na'muna ko'rsatishi darkor. Agar o'qituvchi, tarbiyachi, shifokor, ziyolilar tashqi ko'rinishidan tortib hulq atvorigacha tarbiyachi va o'quvchiga ibrat bo'la olsa, tarbiyachi va o'quvchiga tashqaridan ma'naviy ideal qidirishning hojati qolmaydi.

Haqiqatdan ham ozod va obod vatan, faravon turmushni, ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim berish va tarbiyalashga, qanday ahamiyat berilayotganligiga bog'liqdir.

Tarbiya jarayonini tashkil etish, bolalarni yoshlikdan yaxshi tarbiyalash ularga yaxshi odob va axloq qoidalarini o'rgatish, zamonasining bilimli, ma'rifatli komil kishi qilib tarbiyalash to'g'risida ulug' bobokalon alloma mutafakkir va olimlarimiz Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy ijodi hamda shaxsiy ibrat na'munalari beqiyos tarbiya maktabidir.

Masalan Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub "Qutadg'u-bilik" saodatga boshlovchi kitob asarida yoshlarga beriladigan o'rgatiladigan axloq va odob qoidalari, bilim tarbiya na'munalari tahsinga sazovordir. Buyuk faylasuf olim va tabib Ibn Sino bola tarbiyasini uni tug'ilmasidan oldin boshlash kerak deb bejiz aytmagan. Abu Nosir Farobiy bilim va tarbiya olish naqadar ulug' va mo'tabar ne'mat ekanini, kattalar xatti-harakatlari hamda odatlari kichiklarga ibrat va na'muna

ekanliklarini anglatishi doimo yaxshi xulq hamda axloq odob na'munalarini har birimiz o'z faoliyatimiz bilan keyingi avlodlarga qoldirishimiz bu ulug' xikmat va ne'mat ekanini o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida bejiz keltirilmagan.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkin-ki hozirgi bozor iqtisodiyoti shakllangan bir paytda jahon iqtisodiy qonun qoidalari asosida umuminsoniy qonun va ta'moyillar asosida yangicha dunyoqarash shakllanmoqdaki, biz bu jarayonga ochiq ko'z va hushyorlik bilan qarab o'zimizning g'oyamiz "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish g'oyasi"ning ta'moyillarini bolalarimiz, yoshlarimiz qalbiga yetkaza olsak buyuk ishni amalga oshirgan bo'lamiz.

Milliy g'oya mana shu Obod va Ozod Vatan hammamizniki shiori ostida, ona vatan tinchligi, xalq faravonligi, ilm ma'rifatning gullab yashnashi, bag'rikenglik va komillikka yetishish kabi ulug' maqsadlar vazifa qilib olingan.

Milliy tiklanishdan, milliy yuksalish sari g'oyani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va bolalar va yoshlar orasida olib borilayotgan Ona Vatanga sadoqat va milliy g'urur va iftixorni tarbiyalash sifatini oshirish eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.
8. Mirziyoev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 20 sentabr, № 189 (6883).
9. Shavkat Mirziyoevning "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan OliyMajlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi 2016 yil 14 dekabr)
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>